




2021- yil yanvar-mart oylarida
Qashqadaryo viloyatida
xizmatlar sohasining
rivojlanishi

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Hozirgi kunda xizmatlar sohasi xizmatlarning tabiatи, ularning maqsadi, faoliyat turlari va xizmat ko'rsatish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli turli xil funksiyalarga, manbalarga, ulanishlarga ega bo'lgan murakkab, o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 756,9 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **408,5 mlrd. so'mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,9 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-mart oylarida)

**408,5
mlrd. so'mga**

Hajmning o'sishi

**2 756,9
mlrd. so'm**

Xizmatlar hajmi

106,9 %

O'sish sur'ati



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-mart oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	2 756,9	106,9
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	138,2	115,2
Moliyaviy xizmatlar	457,5	124,4
Transport xizmatlari	561,1	100,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	542,3	102,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	81,7	100,2
Savdo xizmatlari	851,4	100,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	75,5	101,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	129,2	132,3
Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	41,8	98,3
Ijara xizmatlari	90,1	131,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	95,2	103,2
Shaxsiy xizmatlar	91,8	101,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	36,6	104,3
Boshqa xizmatlar	106,8	96,1

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Ijara xizmatlari



Shaxsiy xizmatlar



Yashash va ovqatlanish xizmatlari



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar



Me'morchilik sohasidagi xizmatlar

Savdo xizmatlari

30,9 %

Transport xizmatlari

20,4 %

Moliyaviy xizmatlar

16,6 %

Aloqa va axborotlash - tirish xizmatlari

5,0 %

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

4,7 %

Boshqa xizmatlar

3,9 %

Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari

3,4 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2021- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **30,9 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **3,4 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari umumiyligi hajmning **32,1 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **3,6 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoxda.

2021- yil yanvar-mart oylarida yuqori o'sish ta'lim (**32,3 %**), ijara (**31,7 %**), moliyaviy (**24,4 %**), aloqa va axborotlashtirish (**15,2 %**), shuningdek, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (**4,3 %**) qayd etildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining keskin pasayishi boshqa xizmatlar (**3,9 %**) sohasida qayd etildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar da yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **135,6 %**.


Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda biroz o'sish kuzatilgan – **0,7 %**.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmining eng yuqori hajmi Koson (**170,8** mlrd. so'm), Kitob (**157,1** mlrd. so'm), Chiroqchi (**151,6** mlrd. so'm) va Yakkabog' (**134,4** mlrd. so'm) tumanlari, hamda Qarshi shahrida (**1 053,7** mlrd. so'm) qayd etildi.

Tumanlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm (2021- yil yanvar-mart oylarida)




Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-mart oylarida Qarshi shahri bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmi **929,5** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da



2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

2021- yil yanvar-mart oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida savdo xizmatlarining ulushi **30,9 %** ni tashkil etib, bu esa **851,4 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida ularning hajmi **754,1 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmning **32,1 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

851,4

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

754,1

100,4

O'sish sur'ati, % da

104,0

2020- y. yanvar-mart


2021- y. yanvar-mart

2021- yil yanvar-mart


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'i 85,8 % ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi
(2021- yil yanvar-mart oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosini, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **84,9 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-mart oylarida)

2021- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **457,5 mlrd. so'mni** tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida ularning hajmi **355,0 mlrd. so'mga** teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiyligi hajmidagi ulushi **16,6 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **15,1 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **102,5 mlrd. so'mga** ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **124,4 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida ularning o'sish sur'ati **130,0 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **89,5 %** ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **4,4 %** ni tashkil etadi.

2021- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarning ulushi **6,1 %** oralig'ida qayd etildi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-mart oylarida)**

**Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

**Sug'urta bo'yicha
xizmatlar**

**Yordamchi
moliyaviy
faoliyat**



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **91,8 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarning ulushi **4,2 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **4,0 %**.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yilning yanvar-mart oylarida)

2021- yilning yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **138,2** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdagи xizmatlarning o'sish sur'ati **115,2 %** ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun:
2020- yil yanvar-mart oylarida ushbu xizmat turi hajmi **119,0** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiylajmining **5,1 %** iga teng bo'lgan.
O'sish sur'ati esa **116,4 %** ni tashkil etgan.




2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **96,3 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

**2020- y.
yanvar-mart**



**2021- y.
yanvar-mart**



Telekommunikatsiya xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **96,2 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021 yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan ta'lif va fan sohasini rivojlantirish – uzlusiz **ta'lif tizimini** yanada takomillashtirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lif sohasidagi xizmatlar

2021- yil yanvar-mart oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **129,2** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi **4,7 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **132,2 %** ni tashkil etdi.

**94,1
mlrd.
so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**129,2
mlrd.
so'm**

**2020- y.
yanvar-
mart**



**2021- y.
yanvar-
mart**

128,1 %

**O'sish sur'atlari,
% da**

132,2 %

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-mart oylarida xizmatlar hajmi **94,1** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan esa o'sish **28,1 %** darajasida qayd etilgan.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

68,7 mlrd.
so'm

2020- y.
yanvar-mart

81,7 mlrd.
so'm

2021- y.
yanvar-mart

Xizmatlar hajmi

96,7 %

100,2 %

O'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **13,0 mlrd. so'mga** ortdi.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

93,0 %

2021- y. yanvar-mart

7,0 %

6,7 %

93,3 %

2020- y. yanvar-mart

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyoj hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **93,0 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-mart oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **93,3 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2020- y.

yanvar-mart

2021- y.

38,6
mlrd. so'm

Xizmatlar
hajmi

41,8
mlrd. so'm

135,6 %

O'sish
sur'ati

98,3 %

1,6 %

Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi

1,5 %




2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-mart oylarida)



2021- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi eng katta ulush – **38,2 %** (2020- yil yanvar-mart oylarida – **39,3 %**) ni Qarshi shahri tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Mirishkor tumanida – **2,4 %** (2020- yil yanvar-mart oylarida – **2,2 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-mart oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Qashqadaryo viloyati *	2 756,9	106,9	109,8
Qarshi sh.	1053,7	104,0	106,9
Shahrisabz sh.	120,3	108,0	106,8
tumanlar:			
G'uzor	116,6	107,6	110,5
Dehqonobod	94,9	108,1	110,7
Qamashi	115,1	106,9	106,7
Qarshi	135,6	107,4	110,4
Koson	170,8	104,3	110,7
Kitob	157,1	109,0	106,8
Mirishkor	66,9	110,6	110,4
Muborak	131,1	112,0	102,9
Nishon	107,9	105,3	109,4
Kasbi	81,2	104,9	106,3
Chiroqchi	151,6	108,6	103,8
Shahrisabz	119,7	110,5	107,3
Yakkabog'	134,4	110,5	111,8

* Tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik Tumanlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

**824,9
ming so'm**



Hajmning o'sishi

**110,5
ming so'mga**

105,2 %

O'sish sur'ati

2021- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **824,9** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **110,5 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **714,4** ming so'mni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- aprel holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari



2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

Ularning umumiyligi

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **58,3 %**, sanoat **12,9 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **18,6 %** ga yetdi. Qurilish sohasi ulushi esa **10,2 %** ga to'g'ri keladi.

**2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

**Qishloq, o'rmon
va baliqchilik
xo'jaligi**

Sanoat

18,6 %

Qurilish

12,9 %

Xizmatlar

58,3 %

10,2 %

Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **60,6 %** ni, sanoat **13,7 %** ni, qurilish **11,9 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **13,8 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni **(44,5 %)** egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **8,1 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **5,1 %** ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,0 %** ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **3,7 %** ni tashkil etdi.

Savdo – 44,5

Boshqa turdag'i xizmatlar – 36,6

Yashash va ovqatlanish bo'yicha – 8,1

Tashish va saqlash – 5,1

Axborot va aloqa – 2,0

Sog'liqni saqlash – 3,7


2021- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2021- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **67,4 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **74,7 %** ga to'g'ri keldi.

